
Ta'lim muassasasidagi muammolar ijobiy hal etildi

Bugun shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektorlar rahbarlari va mas'ullar 3 dekabr - Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan Farg'ona shahar imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabiga tashrif buyurdilar. Rahbarlar ta'lim muassasasida o'qituvchilar va o'quvchilarga yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganishdi.

Ta'lim muassasasi joylashgan "Oybek" mahalla fuqarolar yig'inida faoliyat olib borayotgan hokim yordamchisi Bagirjon Abduraimovning mazkur maktabda ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash bo'yicha shahar hokimiga qilgan murojaati shu yerning o'zida "Farg'ona suv ta'minoti" MChJ shahar bo'limi ishchixodimlari tomonidan ijobiy hal etildi. Shuningdek, maktab direktori Uchqunbek Xolmatovning issiqlik manbaidagi nosozlik bo'yicha bildirgan masalasi ham mutaxassislar tomonidan bartaraf etildi.

Shahar hokimi maktabning o'quvchilari bilan ham suhbatlashdi. Poyabzal ishi yo'nalishida tahsil olayotgan Xurshidbek Mirzaevning faoliyati barchani birdek qiziqtirdi. Hurshidbek asli rishtonlik, bolalikdan zaif eshituvchi hisoblanadi. O'quvchi o'zi mustaqil poyabzal tikib, bugungi kunda mahalliy bozorlarda sotmoqda. Vosiljon Nazarov shunday o'quvchilarni kasb-hunarli etib kamol topishlariga ko'maklashayotgan ta'lim ustasi Tursunoy Shokirovaga o'z minnatdorchiligini bildirdi.

Ertaga "Yormozor" mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan "Farg'ona" tantanalar majmuasida kasb-hunar maktabining o'qituvchi va o'quvchilari uchun bayram tadbiri o'tkazilishi belgilandi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-01 21:50:37